



## ISLOM QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Elmirzayev Samariddin Eshkuvatovich,**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. Toshkent, O'zbekiston.*

*"Investitsiyalar va moliya bozori kafedrasi" mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor.*

*E-mail: [samar101127@gmail.com](mailto:samar101127@gmail.com) ORCID: 0000-0002-4493-6316*

**Ochilov Amriddin Mardi o'g'li,**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. Toshkent, O'zbekiston. E-mail:*

*[ochilovamriddinmardiyevich@gmail.com](mailto:ochilovamriddinmardiyevich@gmail.com) ORCID: 0009-0006-4744-5789*

## DEVELOPMENT PROSPECTS OF THE ISLAMIC SECURITIES MARKET

**Elmirzayev Samariddin Eshkuvatich,**

*Academy of Banking and Finance of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Uzbekistan.*

*Head of "Investments and Financial Market Department", Doctor of Economic Sciences (DSc),*

*Professor. E-mail: [samar101127@gmail.com](mailto:samar101127@gmail.com) ORCID: 0000-0002-4493-6316*

**Ochilov Amriddin Mardi ugli,**

*Academy of Banking and Finance of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Uzbekistan. E-*

*mail: [ochilovamriddinmardiyevich@gmail.com](mailto:ochilovamriddinmardiyevich@gmail.com) ORCID: 0009-0006-4744-5789*

### **JELClassification:G1, G12**

**Annotatsiya.** Jahon amaliyotidan ma'lumki, har qanday mamlakat o'z iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilmasdan turib taraqqiy eta olmaydi. Ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish, asosiy fondlarni yangilash, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, zamonaviy texnika-texnologiyalar asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash xorijiy investitsiyalar orqali ta'minlanadi. Mazkur ilmiy maqolada islom qimmatli qog'ozlar bozorini, ya'ni sukukni rivojlantirish, uning tarixiy kelib chiqishi, xorij tajribasi va istiqbolli rejalar muhokama etiladi. Islom moliya tizimi asosan quyidagi xizmat sektorlaridan iborat: Islom banklari, qimmatli qog'ozlar, sug'urta, mikro-moliyalashtirish, investitsion fondlar va boshqa xizmatlar. Islom banklari Islom moliya tizimida jalb qilingan aktivlarning hajmi bo'yicha eng peshqadam sektor bo'lib, ularning hissasi 75% ni tashkil etdi. Islom moliya tizimida 15% ulushga ega bo'lgan

Sukuk obligatsiyalari, islom banklaridan keyin Islom investorlarining mablag'larini jalb qiluvchi eng katta moliyaviy instrument hisoblanadi. Islomiy investitsion fondlar (4%), Takaful (1%), ya'ni Islomiy sug'urta xizmatlari, Islomiy mikro- moliyalashtirish (1%) sektorlari esa sekinlik bilan rivojlanib borayotgan, ammo ulkan o'sish salohiyatiga ega bo'lgan moliyaviy xizmatlardan sanaladi. Soha ekspertlarining aytishicha, Islom moliya tizimi keyingi yillarda ham sezilarli sur'atlarda o'sishi kuzatiladi. Islom moliyaviy institutlar safiga qo'shilayotgan yangi tashkilotlar, Islom moliya qonunlarini qabul qilayotgan davlatlarning soni ko'payib borishi bu tizimning keng istiqbollarga ega ekanligidan dalolatdir. Islom banki, islom qimmatli qog'ozlari (sukuk), loyiha va infratuzilmani moliyalashtirish, islom sug'urtasi (takaful) va islom mikromoliyalash sohasida ijobiy belgilar bilan Indoneziya so'nggi yillarda Malayziya va Bahrayn kabi islomiy moliya yurisdiksiyalariga qarshi kuchli raqib ekanligini isbotladi.



**Abstract.** *It is known from world practice that any country cannot develop without attracting foreign investments to its economy. Intensive development of production, renewal of basic funds, elimination of social problems, increase of competitiveness of products produced on the basis of modern techniques and technologies, and strengthening of the country's export potential are ensured through foreign investments. This scientific article discusses the development of the Islamic securities market, i.e. sukuk, its historical origin, foreign experience and prospective plans. The Islamic financial system mainly consists of the following service sectors: Islamic banking, securities, insurance, micro-financing, investment funds and other services. Islamic banks are the leading sector in terms of the volume of assets involved in the Islamic financial system, and their share is 75%. Sukuk bonds, which have a 15% share in the Islamic financial system, are considered to be the largest financial instrument attracting funds from Islamic investors after Islamic banks. Islamic investment funds (4%), Takaful (1%), i.e. Islamic insurance services, and Islamic micro-financing (1%) are among the financial services that are developing slowly but have great growth potential. According to industry experts, the Islamic financial system will continue to grow at a significant rate in the next years. The number of new organizations joining the ranks of Islamic financial institutions and the increasing number of countries adopting Islamic financial laws indicate that this system has wide prospects. With a positive track record in Islamic banking, Islamic securities (sukuk), project and infrastructure financing, Islamic insurance (takaful) and Islamic microfinance, Indonesia has been a strong*

*competitor to Islamic finance jurisdictions such as Malaysia and Bahrain in recent years.*

**Kalit soʻzlar:** *Islom iqtisodiyoti, moliya, islomiy investitsiya, meʼyoriy-huquqiy baza, tarjiba, Oʻzbekiston.*

**Keywords:** *Islamic economy, finance, Islamic investment, regulatory framework, practice, Uzbekistan.*

**Kirish.** Oʻzbekiston moliya bozorini rivojlantirish uchun qimmatli qogʻozlar potensialidan toʻlaonli foydalanish va imkoniyatlarini kengaytirishga eʼtibor kuchayib bormoqda. Moliya bozori oʻzining rivojlanish tarixi davomida bozor talabiga koʻrakoʻplab yangi moliyaviy instrumentlarni taklif etib kelgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev IHTTIF kengashi 43-sessiyasi ochilishi marosimida soʻzlagan nutqida "Islom olami ulkan iqtisodiy, investitsion salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan toʻgʻri foydalanish, Islom hamkorlik tashkilotiga aʼzo davlatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsion hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yoʻllarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot koʻrsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovard natijada boshqa barcha sohalarning rivojlanishida asos boʻlib xizmat qiladi", – deya taʼkidlab oʻtgan edi [1]. Shunday ekan, musulmon davlatlaridagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablagʻlarini Oʻzbekistonga jalb qilish mamlakatga xorijiy investitsiyalar oqimini oshishiga olib keladi. Bu esa islom iqtisodiyoti tamoyillari asosida investitsiyalarni keng jalb qilish yoʻlidagi muammolarni oʻrganish va ushbu masalalarni bartaraf etish boʻyicha ilmiy xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish ilmiy maqolamizni

dolzarbligini ko'rsatib beradi.

XXI asrga kelib jahonning deyarli barcha mintaqasida islom iqtisodiyoti, islom moliyasi va islomiy qimmatli qog'ozlar jadal taraqqiy eta boshladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida kam darajada ta'sir bilan chiqishi unga bo'lgan qiziqishni yanada orttirib yubordi. Islom moliyasi bugungi kundagi kabi tizim sifatida shakllanishi islom bank tashkilotlarining tashkil etilishi bilan boshlangan. Islom banklari rivojlanish jarayonida turli xildagi yangidan yangi islom moliyaviy tamoyillariga mos keluvchi bank xizmat turlarini yaratib keldi. Bu esa moliya sohasining boshqa instrumentlarini shakllantirish uchun o'ziga xos model sifatida foydalanildi. Natijada sukuklar – islomiy qimmatli qog'ozlar emissiya qilina boshlandi. Bundan tashqari, islom bank xizmatlari va sukuklarning rivojlanishi sug'urta xizmatlariga talabni yuzaga keltirdi. Islomiy moliyaviy aktivlarning moliyaviy sektorlar kesimidagi ulushida bank xizmatlari eng yirik sektor hisoblanadi va jami aktivlarning 75%ini tashkil etadi. Islom moliyasida ikkinchi yirik yo'nalish qimmatli qog'ozlar sektori bo'lib, moliya bozorining 15%ini qamrab oladi. Tadqiqotning ob'ekti ham aynan shu sektordir. Qolgan 10%lik ulush fondlar, takoful, mikromoliyalash va boshqa moliyaviy faoliyat hissasiga to'g'ri keladi.

Ilk sukuk 1990 yilda Malayziyada 125 million malayziya ringgiti (32,9 million AQSh dollari) qiymatida chiqarilgan. Shundan so'ng, 2001 yilga qadar birorta sukuk emissiya qilinmagan. Sukuklar XXI asrga kelibgina jadal rivojlana boshladi.

2010 yilga qadar 17 ta mamlakat sukuk chiqargan bo'lsa 2017 yil yakuniga kelib mamlakatlar soni ikki barobarga ko'paygan (3-rasm). Sukuk emissiyasini amalga oshirgan 34 mamlakat tarkibida AQSh, Yaponiya,

Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Luksemburg kabi iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarning ham mavjudligi islomiy qimmatli qog'ozlarni an'anaviy moliya bozorlarida ham joriy etish mumkinligini yaqqol ko'rsatadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Islom moliyasi, qimmatli qog'ozlarning taraqqiyot bosqichlari va istiqbollari bo'yicha bir qator xorijlik bir guruh iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan xorijlik iqtisodchi olimlardan S.M.Hasan uz-Zaman: Islom iqtisodiyoti bu fiqhiy hukmlar va qonun-qoidalarining amalga tatbiq etilishi bo'lib, u insonlarning talablarini qondirish uchun iqtisodiy resurslardan noto'g'ri va isrofgarchilik bilan foydalanishning oldini oladi. Shuningdek, ularni Yaratgan Alloh, jamiyat oldidagi burchini bajarish uchun qodir qilib qo'yadi [2].

M.A.Mannan: Islom iqtisodiyoti bu insonlarning Islom qadriyatlarini bilan sifatlangan iqtisodiy muammolarini o'rganadigan ijtimoiy ilm hisoblanadi [3].

Xurshid Ahmad: Islom iqtisodiyoti bu iqtisodiy muammoni tushunish maqsadida tizimli harakat qilish va bu muammoga insonning islomiy jihatdan bo'lgan munosabatidir [4].

M.Najatulloh Siddiqi: Islom iqtisodiyoti bu islomiy fikr yurituvchilarning o'z vaqtida bo'ladigan iqtisodiy muammolarga bo'lgan munosabatidir. Bu borada musulmonlarga Qur'oni Karim va sunnat, shuningdek muammoning sababi va u bo'yicha to'plangan tajriba dastak vazifasini o'taydi [5]. Islom moliya tizimi – Islom huquqi, boshqacha so'z bilan aytganda, shariat qonun-qoidalarini asosida tashkil etilish va faoliyat yuritish tamoyiliga ega bo'lgan bank tizimidir, ya'ni bu turdagi banklarning barcha amaliyotlari, masalan, depozit omonati yoki moliyalashtirish bilan

bog'liq amaliyotlari ham shariat ko'rsatmalariga muvofiq bo'ladi. Islom banklarining boshqa amaliyotlari: pul o'tkazmalari, kafolat xatlari, akkreditivlari, chet el valyutasini sotish kabilarga nisbatan ham bu qoidalar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

**Material Va Metod.** *Islom moliyasining afzalliklari.* Islom moliya tizimining o'sishiga, ommalashuviga, geografik kengayishiga uning an'anaviy moliyaga nisbatan bir qancha afzalliklar va ustunliklarga ega ekanligidir. Xususan, Islom moliya tizimi:

*Moliyaviy adolatni targ'ib qiladi va qo'llab-quvvatlaydi.*

Moliyaviy adolat Islom ta'limotining bosh tamoyilidir. Islom moliya institutlari foyda va zarar taqsimotida muvozanatni saqlashga harakat qiladi. Ular loyihada tadbirkor bilan teng huquqli sherik sifatida ishtirok etishadi. Loyihadan tushadigan daromadlar ham, loyiha bilan bog'liq risklar ham tomonlar kelishuvi asosida adolatli taqsimlanadi. Agar Islom banki moliyalashtirish orqali kerakli foydani ko'zlayotgan bo'lsa, albatta, zararga ham sherik bo'lishga tayyorbo'lishi shart.

*Moliyaviy faollikni oshiradi.*

Tahlilchilarning ta'kidlashicha, dunyo musulmonlarining to'rt dan uch qismi an'anaviy banklar bilan deyarli aloqa qilmaydi. Islomiy bank tizimi esa bu to'siqni olib tashlashga va musulmonlarning banklar bilan faolroq hamkorlik qilishiga yordam beradi.

*Harom va zararli narsalarning ta'sirini kamaytiradi.*

Islom moliyaviy institutlari jamiyatga zararli faoliyatlarni moliyalashtirmaydi. Yaxshiroq e'tibor berilsa, Islom moliyasi nafaqat musulmonlarga, balki boshqa e'tiqod vakillariga ham manfaat keltiradi.

*Moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.* Islom banklari mijozlar

risklarining ma'lum qismini zimmalariga olishlari sababli har bir arizani, loyihani puxtaroq o'rganishadi, ularning qaror qabul qilish jarayoni ham ancha keng qamrovli. Risklari haddan ziyod katta bo'lgan loyihalar, albatta, Islom banklari tomonidan rad etiladi.

Islom moliya tizimining moliyaviy barqarorlikni saqlashdagi eng katta omil

– Islom moliyasining real iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liqligi. Hali ishlab chiqarilmagan yoki yo'q narsani sotish, *option*, *derivativ*, *fyuchers* kabi negizi real biznes bilan asoslanmagan qimmatli qog'ozlar savdosi, *Short Sales* singari qarzga olingan va o'ziga tegishli bo'lmagan aktivlarni sotish, shartnoma muddatlari va narxlari mavhum bo'lgan narsalarning tijorati va shunga o'xshash barcha moliyaviy spekulyatsion faoliyatlar shariat tomonidan ta'qiqlangan. An'anaviy moliya bozorlarda keng avj olgan "qarzlarni sotish va sotib olish" faoliyati ham qat'iy man qilingan. Bunday faoliyatlar moliya bozorining hajmini sun'iy tarzda "sovun pufagiday" shishirib, juda katta iqtisodiy muammolar keltirib chiqarishini 2007 yil AQShda ro'y bergan va butun jahon moliyaviy inqiroziga sabab bo'lgan subkreditli ipoteka inqirozi misolida kuzatish mumkin [7, 8].

Islom banki – mijoz, Islomiy investor – tadbirkor o'rtasidagi oldi-berdilar faqat va faqat o'zaro manfaat ustiga quriladi. Moliyaviy spekulyatsiya, real iqtisodiy sektorga bog'lanmagan qimmatli qog'ozlar va qarz oldi-berdilari hamda shariat ruxsat bermagan boshqa faoliyatlar, yuqorida guvohi bo'linganidek, iqtisodiy-moliyaviy mutanosiblikka rahna solganidek, Islom moliya tashkilotlari mamlakatda sog'lom va samarali iqtisodiy-moliyaviy muhit yaratilishiga zamin yaratadi va o'sha mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga ham bevosita, ham bilvosita hissa qo'shadi.




Sukukka ta'rif berilganda ularni "islomiy sekyuretizatsiya" deb ham ataladi.

Mohiyati shundaki, aktivlar sekyuretizatsiya qilinishi natijasida sukuk emissiya qilinadi. Shu sababli, sukuklar aktiv bilan qoplangan va risk darajasi pastroq bo'ladi.

Sukuk operatsiyalarini amalga oshirishda yuqori aniqlikni talab qiluvchi o'ziga xos jihatlarining mavjudli sabab odatda emitent uchun alohida SPV tashkil etiladi. SPV (special purpose vehicle) – maxsus maqsadli korxonalar yoki loyiha kompaniyasi bo'lib, ma'lum bir loyiha yoki biznes rejani amalga

oshirish va boshqarish uchun tashkil etilgan korxonalar. Yuridik shaxstomonidan tashkil etilsa sho'ba korxonalar sifatida faoliyat yuritadi. SPV biznes loyiha va moliyaviy operatsiyalarni samarali boshqarish imkoniyatini yaratadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, emitent Shariat kengashini tuzishi zarur bo'ladi. Bundan tashqari, emitent ixtiyori va mamlakat qonunchiligi talabiga ko'ra anderrayter va reyting agentliklari jalb qilinishi mumkin.

Sukukning investor va SPV o'rtasidagi munosabatiga ko'ra bir necha turlari mavjud bo'lib, har biri o'ziga xos mexanizm asosida amalga oshiriladi.



1-rasm. Mudoraba va mushoraka sukukining ishlash mexanizmi

Mudoraba sukuki. SPV mudorib sifatida, sukuk egalari – investorlar robbul mol sifatida qatnashadi. Investor loyiha doirasidagi aktivlar (SPV aktivlari)ning egasi hisoblanadi. Loyiha boshqaruvi, foyda va zarar taqsimoti mudoraba kelishuvining tartib-qoidalari asosida amalga oshiriladi. Sukuk nominal qiymatining qaytishi va davriy foydaning to'lanishi kafolatlanmagan bo'lib, loyihaning istiqboliga bog'liq holda riskka asoslanadi. Kelishuv muddati yakunida SPV investordan loyihani bozor narxida sotib oladi va bu narx sukuk

so'ndirilishining qiymatini aks ettiradi (4-rasm). Mudoraba sukuki bilan ikkilamchi bozorda oldi-sotdi jarayonlarini amalga oshirish mumkin. Mohiyatan investor loyiha aktivlaridagi o'z ulushi bilan savdo qilgan hisoblanadi.

Mushoraka sukuki. SPV va investorlarlar o'zaro sherik sifatida ishtirok etadi hamda SPV aktivlariga ham birgalikda mutanosib ulushda egalik qilishadi. Loyiha boshqaruvi, foyda va zarar taqsimoti mushoraka kelishuvining tartib-qoidalari asosida amalga

oshiriladi. Qolgan barcha masalalar mudoraba sukuki kabi amalga oshiriladi.

**Murobaha sukuki.** SPV va investor o'rtasida oldi-sotdi shartnoma tuziladi. SPV chiqargan sukuk uchun investor to'lovni amalga oshiradi (5-rasm). Mablag' evaziga biror tovar yoki mol-mulk bozor narxi ( $R_0$ )da xarid qilinadi. Mulk avval investor nomiga o'tkaziladi. Keyin mulk kelishilgan narx ( $R_1$ ) bo'yicha bo'lib to'lash sharti bilan SPVga o'tkaziladi. O'z navbatida SPV mulkni darhol bozorda sotib yuboradi va tushum loyiha uchun moliyaviy manba bo'lib shakllanadi. Emitent mulkni sotmay loyiha faoliyatida foydalanishi ham mumkin. Mulkka egalik huquqini olgandan so'ng investorlar foydasi mulkning bozor narxi va uni kelishuv asosida qayta sotish narxi orasida yuzaga keladi ( $R_1 - R_0 = \text{foyda}$ ). Bo'lib to'lash muddati yakunida oxirgito'lov amalga oshirilganda sukuk so'ndirilgan hisoblanadi.

**Salam sukuki.** SPV va investor o'rtasida oldi-sotdi shartnoma tuziladi. Ijara mexanizmining aks mexanizmiga qiyoslash mumkin. Emitent kelajakdagimahsulot uchun chegirma asosida avvaldan to'lov ( $R_0$ )ni qabul qilib oladi. SPV loyiha uchun moliyaviy resursga ega bo'ladi. Xaridorga esa sukuk joylashtiriladi. Bu narx sukukning nominal qiymatini aks ettiradi. Mahsulot investor mulki hisoblanib, SPVga kreditorlik majburiyati yuklanadi. Kelishilgan muddatda mahsulot bozor narxida sotiladi va mablag' ( $R_1$ ) sukuk egalariga taqsimlab beriladi. Bu esa sukuk so'ndirilishini aks ettiradi. Investorlar foydasi bozor narxi va nominal narx o'rtasida yuzaga keladi ( $R_1 - R_0 = \text{foyda}$ ).

**Natijalar.** Islomiy bank xizmatlari va mahsulotlarini taklif etuvchi banklar va moliya tashkilotlari soni kengaydi va xalqaro sarmoyadorlar islom kapital bozorlarining

kengayish imkoniyatlarini e'tirof etib, mamlakatga oqib kelmoqda.

Umuman, bugungi kunga kelib, 500 dan ziyod islom banki va moliya muassasalarining yalpi aktivlari 4 trillion AQSh dollariga yaqin bo'lib, yiliga 15-foizga o'smoqda. Shu ma'noda, musulmon davlatlardagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan tashkilotlar mablag'ini O'zbekiston iqtisodiyotiga, xususi sektorini qo'llab-quvvatlashga jalb etish ayni muddaodir [8].

O'zbekistonda Islomiy moliyalashtirishga asoslangan amaliyotlar 2004 yilda boshlangan bo'lib, bu mamlakatimizning Islom taraqqiyot banki (ITB)ga a'zo bo'lib kirishi bilan kechgan.

Bugungi kunga qadar ushbu bank tomonidan jami 2,5 milliard dollardan ortiq bo'lgan 30 ta yirik investitsiya loyihasi ma'qullangan. Ular doirasida maktablar, arzon uy-joylar, avtomobil yo'llari, elektr va ichimlik suvi tarmoqlari qurilib, sog'liqni saqlash muassasalari zamonaviy jihozlangan [9].

O'zbekiston MDH davlatlari orasida ITB va XISMK a'ziligiga qo'shilgan mamlakatlarning oxirgisi bo'lishiga qaramay, ikkala tashkilotning portfeli bo'yicha mintaqada birinchi o'rinda turadi. 2022 yilda O'zbekiston hukumati va XSRİK o'rtasida savdo operatsiyalarini moliyalashtirish maqsadida 100 mln. dollarlik hadli bitim imzolandi. Unga ko'ra korporatsiya O'zbekistonning tashkilotga a'ziligiga qadar savdo loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ushbu tashkilotga a'zo bo'lgandan so'ng, 2018 yidan 2022 yilga qadar tashkilot tomonidan O'zbekistondagi tijorat banklari, jumladan, Aziya Aliyans Bank, Trastbank, Kapitalbank, Turonbank, O'z sanoatqurilishbank, Agrobank, Qishloq qurilish bank, Infinbank va Aloqabanklarga 423 million AQSh dollari miqdoridagi



murobaha moliyalashtirish liniyasi taqdim etilgan.

Quyida 3-jadvalda 2004-2021 yillarda O'zbekistonda Islom taraqqiyot banki bilan birgalikda amalga oshirilgan investitsiya loyihalari doirasida qabul qilingan qarorlar tahlili keltirilgan bo'lib, loyihalarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan va loyiha yakunida ushbu qarorlar o'z kuchini yuqotgan. Jumladan, Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 10 fevraldagi 65-son qarori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2021 yil 22 fevraldagi 87-sonli «O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z ahamiyatini yo'qotgan ayrim qarorlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'z ahamiyatini yo'qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko'rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbiarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 27 sentabrdagi PF-6075-son Farmoni)»gi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan. Qolgan 1-jadvaldagi qarorlar ham mazkur qaror kabi loyihalar yakunlangandan so'ng o'z kuchini yo'qotgan.

1-jadval

**2004-2021 yillarda O'zbekistonda Islom taraqqiyot banki bilan birgalikda amalga oshirilgan investitsiya loyihalari doirasida qabul qilingan qarorlar [4]**

Qarorning nomi	Loyihalar-ning umumiy qiymati (mln AQSH dollari)	Islom taraqqiyot banki tomonidan moliyalash - tiriladigan summa (mln AQSH dollari)
<b>2004-2007</b>		
Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 10 fevraldagi 65-son qarori	<b>853.8</b>	<b>347.3</b>
<b>2006-2009</b>		
Islom Taraqqiyot Banki ishtirokida "O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarini qurish va jihozlash loyihasini amalga oshirish chora- tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.05.2006 yildagi 104-son qarori	<b>34 544 520</b>	
<b>2007-2009</b>		
«Beshta kasb-hunar kollejini qurish va jihozlash» loyihasini Islom Taraqqiyot Banki ishtirokida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.10.2007 yildagi PQ-713-son qarori	<b>10 500 000</b>	
<b>2012</b>		



Islom Taraqqiyot Banki ishtirokida "O'zbekiston Respublikasi Onkologiya muassasalarini modernizatsiya qilish loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.09.2012 yildagi PQ-1821-son qarori	<b>37 040 000</b>
<b>2013-2016</b>	
Islom Taraqqiyot Banki ishtirokida "Xorazm viloyati Toshokin tizimining magistral sug'orish kanallarini tiklash loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2012 yildagi PQ-1849-son qarori	<b>90 370 000</b>
<b>2015-2016</b>	
Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi doirasida Islom Taraqqiyot Bankining jalb etilgan moliyaviy mablag'laridan foydalanish, ularga xizmat ko'rsatish va ularni qaytarish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.07.2015 yildagi 189-son qarori	<b>100.0</b>
<b>2017-2021</b>	
Islom Taraqqiyot Banki ishtirokida "Guliston, Shirin va Yangier shaharlarida kanalizatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish vakengaytirish loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.02.2017 yildagi PQ-2798-son qarori	<b>57.5</b>
<b>2017 - 2021</b>	
Islom Taraqqiyot Banki ishtirokida 2017 — 2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.03.2017 yildagi PQ-2859-son qarori	<b>300.0</b>
<b>2015-2019</b>	



<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 maydagi PQ-3011-sonli qarori doirasida quyidagi qarorlardan o‘rin olgan loyihalar maqsadi davom etgan va amalga oshirilgan:</p> <p>1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 12 noyabrdagi «Islom taraqqiyot banki ishtirokida «Toshkent-Termiz M39 avtomobil yo‘lini qayta qurish» loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-1433- sonli qarori.</p> <p>2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 28 dekabrda «Saudiya Arabistoni taraqqiyot jamg‘armasi va Quvayt arab iqtisodiy taraqqiyot jamg‘armasi ishtirokida «G‘uzor-Chim-Ko‘kdala 4R87 avtomobil yo‘lini qayta qurish» loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1671- sonli qarori.</p> <p>3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 12 noyabrdagi «Islom taraqqiyot banki ishtirokida «Toshkent-Termiz M39 avtomobil yo‘lini qayta qurish» loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1433-sonli hamda 2011 yil 28 dekabrda «Saudiya Arabistoni taraqqiyot jamg‘armasi va Quvayt arab iqtisodiy taraqqiyot jamg‘armasi ishtirokida «G‘uzor-Chim-Ko‘kdala 4R87 avtomobil yo‘lini qayta qurish» loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1671-sonli qarorlari.</p>	<p><b>167.2</b></p>
<p><b>2021</b></p>	
<p>Islom Taraqqiyot Banki va OPEK Xalqaro Taraqqiyot Jamg‘armasi ishtirokida «Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish» loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.09.2021 yildagi PQ-5246-son qarori</p>	<p><b>275.0</b></p>
<p><b>Jami</b></p>	<p><b>1 466 731 800</b></p>

**Munozara.** O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda islom bank-moliya tizimini rivojlantirish orqali ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va shu orqali investitsiyalarni diversifikatsiya qilish zarurati, nafaqat jismoniy shaxslar balki yuridik shaxslar tomonidan ham katta talab bilan kutilayotgan yo‘nalish hisoblanadi. Xususan, 2020 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi va O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda O‘zbekistonda

jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma Islom bank-moliyasi mahsulotlariga talab yuqori ekanligi aniqlangan. Jumladan, jismoniy shaxslarning 55 foizi, yuridik shaxslarning 38 foizi diniy qarashlari sabab an’anaviy kreditlardan foydalanmasliklarini ko‘rsatishgan bo‘lishsa, yuridik shaxslarning 61 foizi va jismoniy shaxslarning 75 foizi agarda Islom bank-moliya muassasalari O‘zbekistonda faoliyat boshlashsa, o‘z moliyaviy amaliyotlarini Islom



moliya muassasalarida olib borishlarini aytishgan. Bundan tashqari, "Islom tamoyillariga asoslangan daromad keltiruvchi omonat yoki sheriklik bitimlariga qancha mablag' yo'naltirgan bo'ladingiz?" degan savolga 26,31 foiz jismoniy shaxslar 1 mln.dan - 5 mln. so'mgacha bo'lgan, 23,69 foizi esa 20 mln.so'mdan ko'p bo'lgan (bo'sh) mablag'larini islom banklariga omonat sifatida qo'yishga tayyor ekanliklarini bildirishgan. Mazkur so'rovnoma natijalaridan anglashimiz mumkinki, Islom bank-moliya tizimining mamlakatimizda joriy qilinishi birinchi navbatda ichki investitsiyalarni rag'batlantiradi, ya'ni bugungi kunda yashirin iqtisodiyotda aylanayotgan mablag'larni rasmiy bank tizimiga jalb qilish imkoniyatini beribgina qolmasdan, Islom moliyasi uchun zarur infratuzilmani shakllantirish Islom moliyasi rivojlangan Arab dunyosi mamlakatlaridan hamda Malaziya, Pokiston, Indoneziya, Turkiya va boshqa bir nechta mamlakatlardan Islomiy moliya yo'nalishi bo'yicha xorijiy investitsiyalarning jadal sur'atlarda kirib kelishiga sabab bo'lar edi.

**Xulosa.** Mamlakatimizda islom moliyasini joriy qilish moliyaviy resurslarini jalb qilishning qo'shimcha manbalarini yaratishi bilan e'tiborga molik. Shu nuqtai nazardan ushbu tizim iqtisodiyotimiz uchun chuqur o'rganilmagan yangi tizimligini hisobga olgan holda islom moliyasini O'zbekistonga tatbiq qilishni uning institutsional asoslarini yaratishdan boshlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Xususan:

- islom moliyasi ixtisosligi bo'yicha oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni o'z ichiga olgan kadrlar tayyorlashni faollashtirish va tizimni takomillashtirish;

- islom iqtisodiyotiga ixtisoslashgan oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari, iqtisodiy-moliyaviy blokka oid davlat

tashkilotlari vaqillari va sohaga oid boshqa mutaxassislar ishtirokida O'zbekiston sharoitida islom moliyasi tamoyillari hamda konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha respublika ishchi guruhini tuzish;

- mavjud moliyaviy tizimga qo'shimcha ravishda islom moliyasini joriy qilishni ko'zda tutuvchi tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlash.

Iqtisodiyotimizga islom moliyasi tizimining institutsional asoslari va infratuzilmasini shakllantirish maqsadida Islom taraqqiyot banki hamda Islomiy moliya muassasalari uchun buxgalteriya va audit tashkiloti bilan muhokamalar o'tkazish hamda ularning amaliy tajribalarini o'rganish ish samaradorligini oshirishga katta turtki bera



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
2. "Islomiy moliya tarixi", Navid Muhammad, 2015 yil, <https://www.islamicfinance.com/2015/02/an-overview-of-the-history-of-islamic-finance>;
3. Baydaulet, Ye.A. Islomiy moliya asoslari [Matn] / Ye.A. Baydaulet. – Toshkent:
  4. «O'zbekiston» NMIU, 2019. – 432 b.
  5. Bekkin R.I. Islom iqtisodiy modeli va zamon. B. Jo'raev tarjimai. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. – 360 b.
  6. Imamnazarov J.M. Islom moliya tizimi imkoniyatlaridan O'zbekiston iqtisodiyotida foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish 08.00.01 -Iqtisodiyot nazariyasi. PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi /TDIU T; 2023
  7. Abrorov S.Z. O'zbekistonda sukuk – islomiy qimmatli qog'ozlarni joriy etish istiqbollari. 08.00.07-Moliya, pul muomilasi va kredit PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi /TDIU T; 2020
  8. "Islomiy moliyaga kirish", Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniy, Maktaba Ma'ariful Quran Karachi – 75180, 2007 yil, Mehran Printers, Karachi.
  9. "Inqirozdan keyingi islohotlar: Fikr yuritish lozim bo'lgan mulohazalar", Mufti Muhammad Taqiy Usmoniy, 2010 yil, <https://attahawi.com/2010/03/18/post-crisis-reforms-some-points-to-ponder-by-mufti-muhammad-taqi-usmani/>.
  10. <https://www.astanafindays.org>